

ERGONIMLARNING NOMLASH TIZIMINING ALOHIDA TURI SIFATIDA  
O'RGANILISHI

To'xtayeva Sarvinoz

Termiz davlat universiteti talabasi

[sarvinoztuxtayeva04@gmail.com](mailto:sarvinoztuxtayeva04@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ergonimlar onomastikaning yetakchi tarmoqlaridan biri ekanligi hamda uning muhim komponentlari izohlandi. O'zbek tilshunosligida ushbu soha yuzasidan tadqiqotlar yetarlicha bo'lmaganligi sababli chetki manbalardan ham mavzuga doir manbalar ko'rib chiqildi va tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** onomastika, ergonimlar, sotsiologiya, etimologiya, shahar tili, Saparniyozova, B.A. Larin, rus tilshunosligi, onomastic tahlil, tashkilot-muassasa, lingvistik, semantic.

**Аннотация.** В данной статье объясняется, что эргонимы являются одной из ведущих ветвей ономастики и её важными компонентами. В связи с недостатком исследований в этой области в узбекской лингвистике, были также рассмотрены и проанализированы внешние источники по данной теме.

**Ключевые слова:** ономастика, эргонимы, социология, этимология, городской язык, Сапарниязова, Б.А. Ларин, русская лингвистика, ономастический анализ, организация-институтция, лингвистический, семантический.

**Abstract.** This article explains that ergonyms are one of the leading branches of onomastics and its important components. Due to the lack of research in this area in Uzbek linguistics, external sources on the topic were also reviewed and analyzed.

**Keywords:** onomastics, ergonyms, sociology, etymology, urban language, Saparniyozova, B.A. Larin, Russian linguistics, onomastic analysis, organization-institution, linguistic, semantic.

**Kirish.**

Tilshunoslik fanida so'zlar va ularning ma'nolari bilan bir qatorda, nomlarning kelib chiqishi, tuzilishi va qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ana shu yo'nalishni o'rganuvchi tilshunoslik sohasi onomastika deb ataladi. Onomastika - bu atoqli otlarni o'rganadigan tilshunoslik bo'limi bo'lib, u nomlarning kelib chiqishi (etimologiyasi), rivojlanishi, tuzilishi va jamiyatdagi funksiyasini tahlil qiladi. Har bir nom ma'lum bir tarixiy, ijtimoiy yoki madaniy ma'lumotni o'zida aks ettiradi. Shu sababli onomastika nafaqat lingvistik, balki madaniy-tarixiy ahamiyatga ham ega. Onomastika nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya, madaniyat va sotsiologiya bilan ham chambarchas bog'liqdir. Ushbu soha doirasida turli xil atoqli otlar, jumladan, inson ismlari, joy nomlari va tashkilot nomlari o'rganiladi. Tashkilot, korxonalar va muassasalar nomlari esa alohida guruh sifatida ergonimlar deb yuritiladi. XX asrning boshlarida so'z nomni ifodolovchi birlik sifatida o'rganish predmetiga aylandi. Bu haqda A.V.Superanskaya shunday deydi: "Onomastika yoki onimiya har xil nom tiplarining qo'shilmasi sifatida inson hayoti va faoliyatining hamma qirralari bilan bog'liqdir. Qayerdagi individuallashtirish yoki identifikatsiyalash talab qilinsa, inson obyektini ajratish uchun, albatta, atoqli otni tanlaydi".<sup>1</sup> Demak, har qanday obyekt, hodisa yoki tashkilot nom orqali

<sup>1</sup> Суперанская, А. В. Общая теория имени собственного. – М., 1973. – 367 с.

identifikatsiya qilinadi. Shu jihatdan qaraganda, ergonimlar ham nomlash tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanib onomastika tarkibida alohida sistema sifatida o'rganiladi.

Ergonimlar onomastikaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, ular umumiy nomlash tizimining bir bo'lagi hisoblanadi. Onomastika barcha nomlarni umumiy jihatdan o'rgansa, ergonimika aynan tashkilot nomlariga ixtisoslashadi.

Onomastika va ergonimlarning o'zaro bog'liqligini quyidagicha tushuntirish mumkin:

Har bir ergonim - bu atoqli ot, demak u onomastika doirasiga kiradi.
Ergonimlar jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy jarayonlarni aks ettiradi, bu esa onomastikaning tadqiqot obyektini kengaytiradi.
Onomastik tadqiqotlar orqali ergonimlarning qanday shakllanishi, qaysi til unsurlaridan foydalanilishi aniqlanadi.
Ergonimlar tilning zamonaviy rivojlanish jarayonini ko'rsatib beradi.

Masalan, zamonaviy korxonalar nomlarida ingliz tilidan olingan so'zlarning ko'pligi globalizatsiya jarayonining tilga ta'sirini ko'rsatadi. Bu esa onomastikaning bo'shlig'ini ko'rsatadi va onomastik tahlil uchun material bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi kunda tilning onomastik sathi o'zida aniq tizimni ifoda etadi. Uning markazi, an'anaga muvofiq, antroponimlar va toponimlar hisoblanadi, chunki XX asrning oxirida izlanuvchilar diqqati onomastika periferiyasiga xos hisoblangan birliklarga, shu jumladan, ergonimlarga bog'lanib qolgan edi. [1]

Ergonim – shahar til makonining birliklaridir.<sup>2</sup> Bunda shahar tili atamasi B.A.Larin tomonidan iste'molga kiritilgan bo'lib, olim tilshunoslar asosiy ikki yozma adabiy til hamda og'zaki nutq (asosan dialektlar)ni tadqiq etishdan tashqari oraliq til – shahar tiliga ham e'tibor qaratishlari lozimligini uqtirgan. “Ergonimlar tarix va kundalik hayotni aks ettiradigan ko'zgu hamda ijtimoiy-madaniy jarayonlarning muhim markeri (yozuvi) bo'lishi mumkin”.<sup>3</sup>

Tilshunoslikda ergonimlar onomastikaning maxsus tarmog'i sifatida XX asrning 90-yillaridan boshlab tadqiq qilina boshlandi. Holbuki, atoqli otlar ko'hna davr faylasufi Xrisipp (er.avv. III asr), o'rta asrlar Uyg'onish davri faylasuflari T.Gobbs, J.Lokk, G.Leybnits tomonidan ajratila boshlangan.<sup>4</sup> Nom masalasi Markaziy Osiyoga harbiy-diplomatik maqsadlarda yuborilgan general Chjan Syan (eramizgacha II asrning birinchi yarmi, eramizgacha 115/112 yillar)ning geografik kashfiyotlari, shuningdek, yetuk qomusiy olimlar: Mahmud Qoshg'ariy hamda Abu Rayhon Beruniyning asarlarida ham ko'zda tutilgan.

XXI asrda tilga zamonaviy yondashuvlar ergonimlarni shahar tilining komponenti sifatida tadqiq etishni shartladi. Vaholanki, Y.A.Yakovleva, A.M.Yemelyanovalar shahar tili termini ostida: adabiy til, jonli so'zlashuv tili va shahar onomastik ko'laminin uyg'unlashuvini qayd etadilar.

<sup>2</sup> Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1988. –192 с.

<sup>3</sup> Kultayeva F. Ergonimlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi // STARS International University. 2022. – B. 111. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp109-113>

<sup>4</sup> Saparniyazova M. O'zbek tilining ergonimik mikrotizimi // “Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-y. – B. 254.

Bir qancha tadqiqotlarda ergonimlarni tasniflash masalasi asosiy o'rinni egallaydi. Tilshunoslikda "ergonim" atamasi birinchi marta 1978-yil N.V.Podolskayaning "Rus onomastik terminologiyasi" lug'atida taklif qilindi.<sup>5</sup> Olimaning ta'kidlashicha, ergonim termini yunoncha eryov – "ish, mehnat; faoliyat, vazifa" (etimologik asosi "ergo" - ish, savdo-sotiq hamda "nym" – nom, ism; ergon so'zini yana "ish" yoki "harakat" deb ham tarjima qilish mumkin so'zidan olingan bo'lib, tijorat uyushmalari, turli birlashmalar, tashkilotlar, muassasalar, korporatsiyalar, korxonalar, jamiyatlarning atoqli nomlariga nisbatan qo'llaniladi. N.V.Podolskaya "Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Xalqaro astronomik ittifoq (XAI), Fanlar akademiyasi (FA), Moskva davlat universiteti (MDU), Kichik teatr, Moguchaya kuchka" musiqa to'garaklarining ergonimlarini misol sifatida sanab o'tadi" A.M.Yemelyanova turli vazifaga xoslangan ixtisoslik korxonalarining tegishli nomlari, ya'ni tijorat birlashmalari, korxonalar, madaniyat, sport obyektlarini ergonim sifatida baholaydi. Y.A.Trifonova esa "huquqiy maqomidan qat'i nazar, har qanday tijorat obyektlariga tegishli atoqli nomlarni ergonimlar tarkibiga kiritadi hamda ular orqali subyekt tomonidan adresatga sun'iy ravishda pragmatik ta'sir o'tkazish maqsad qilinishini aytib o'tadi"<sup>6</sup>.

"Jahon tilshunosligida, xususan, rus tilshunosligida ergonimlar urbanonimlarning bir turi sifatida, ozarbayjon tilshunosligida esa ktematonimlarning bir turi sifatida nomshunoslarning e'tiborini tortadi. Bu holat XX asrning 60-yillarida M.L.Shetinin, B.Z.Bukchina va G.A. Zolotova, A.V.Superanskaya, S.A.Koporskiy, M.N.Morozova, L.V.Shetin, V.D.Bondaletova kabi tilshunoslar tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Unda tilshunoslar murakkab obyektlarni nomlashning umumiy tamoyillari bilan shug'ullanishgan. Bunga qadar tadqiqotchilar "urbanonim" atamasidan foydalanganlar".

"Ergonimlarni boshqa bir qancha turdagi onomastik birliklardan ajratish, ularni tavsiflash muammolari, kategorik xususiyatlari va asosiy farqlariga oid onomastikaning periferik bo'limiga bag'ishlangan tadqiqotlar XX asrning 90-yillariga to'g'ri keladi va bu A.V.Bespalova, S.V.Zemskova, N.V.Nosenko, E.S.Otin va boshqa nomshunoslar bilan bog'liq"

Zamonaviy tadqiqotlar ergonimlarning terminologik tavsifi, shuningdek ulardan foydalanish masalalari, boshqa til va tildan tashqari elementlarning murakkab obyektlarini nomlash muammolari bilan shug'ullanadi. Mutaxassislar olam hududiy manzarasiga doir qarashlarida shahar tiliga to'xtalishlari bejiz emas, chunki shahar tili – bu bir tomondan geterogen tarkibli, ijtimoiy tarmoqlangan, turli til guruhleri va oilalariga mansub lisoniy shakllar to'qnashuvidan iborat tizim. Ikkinchi tomondan shahardagi turli til tizimosti tizimlarining o'zaro aloqa-aralashuvi shu shaharning gomogen tarkibli lisoniy tizimning shakllanishiga olib keladi.<sup>7</sup>

So'nggi yillarda bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda ergonimlarning struktur-semantik, derivatsion, pragmatik va lingvopoetik xususiyatlari yoritib berildi. Bir qancha tadqiqotlarda ergonimlarni tasniflash masalasi asosiy o'rinni egallaydi.

"Ergonim" atamasidan foydalanish shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilarning ko'pchiligi "ergonim" atamasi haqida shaharning shahar maydoni kontekstida gapiradi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda ergonimlar nafaqat shaharda, balki tuman va qishloqlarda ham uchraydi (qishloq

<sup>5</sup> Kultayeva F. Ergonimlarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi // STARS International University. 2022. – B. 111. <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp109-113>

<sup>6</sup> Saparniyazova M. O'zbek tilining ergonimik mikrotizimi // "Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-y. – B. 254.

<sup>7</sup> Kultayeva F. "Surxondaryo ergonimlarining lingvomadaniy xususiyatlari" dissertatsiya ishi Termiz 2025 14-b.

aholisining turmush sharoitini yaxshilash, qishloq infrastrukturasi rivojlantirishga aloqador islohotlar ergonomiylarning qishloq tiliga keng ko'lamda kirib borishiga sharoit yaratdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Суперанская, А. В. Общая теория имени собственного. М., 1973. 367 с.
2. Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. М.: Наука, 1988. 192 с.
3. Kultayeva F. Ergonomiylarning o'zbek tilshunosligida o'rganilishi // STARS International University. 2022. B. 111.  
<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp109-113>
4. Saparniyazova M. O'zbek tilining ergonomiik mikrotizimi // "Lisoniy meros va tilshunoslik taraqqiyoti" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2023-y. B. 254.
5. Kultayeva F. "Surxondaryo ergonomiylarining lingvomadaniy xususiyatlari" dissertatsiya ishi Termiz 2025 14-b.